

## **ALISHER NAVOIYNING G'AZALLARIDAGI HAYOTGA TARBIYALASH MISRALARI**

**Shamurotova Feruza Shukurulla qizi**

Urganch davlat universiteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada buyuk istedod sohibi nazm mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy ijodining shaxs ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati, shuningdek, uning g'azallarini barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati masalalari muhokama qilingan*

**Kalit so'zlar:** Buyuklik, ixlos, iste'dod, shaxsiyat.

### **ABSTRACT**

*This article discusses the importance of the work of Mir Alisher Navoi, the sultan of the great poet, in the spiritual upbringing of the individual, as well as the importance of his poems in the upbringing of a harmoniously developed person.*

**Keywords:** Greatness, sincerity, talent, personality.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается значение творчества султана великого таланта поэзии Мир Алишера Навои в духовном воспитании личности, а также значение его стихов в воспитании гармонично развитой личности.*

**Ключевые слова:** величие, искренность, талант, личность.

### **KIRISH**

Hech kim aytmagan fikrni aytish, qadam yetmagan cho'qqini egallash, fanda yangilik yaratish, bu hali buyuklik emas, bu - hayratli jarayon, bu-noyob voqelik, xolos! Buyuklik – o'sha ixtironing yashab qolishi! Faqatgina yashab qolishi emas, balki o'zining hayotbaxshligini davrlaroshga saqlab qolishdir. Insonning tarixidane-ne "boshi oltin"lar kelib ketdi. Ne-ne tesha tegmagan gaplar aytili! Ammo ularning hammasi ham buyuk bo'lib qololmadi! Nega?

Hazrati Navoiydan necha xoqonu necha sultonlar o'tdi. Ularning biri keng bo'lsa, biri tor edi. Ehtimol, biri Navoiyni suysa, birovi kuyardi. Ularning qo'lida hukm edi, ularning qo'lida muhr edi. Lekin hayron qoladigani shuki, Navoiy hamma asrda va hamma shohlik fasllarida birdek buyuk sanalib kelaverdi!.. 1941-yil. O'ris uchun ikki dunyo bir tutam bo'lib turibdi. Leningrad ustiga yomg'irning o'rniga

bo'mba yog'iladi. Ammo shu tumonat, shu arosat ichida Alisher Navoiyning 500 yilligi nishonlanyapti! Bu balki samimiyatdan xolidir, mazkur tadbir sho'roga siyosat uchum kerak bo'lgandir. Ammo shuncha millat, shuncha elat turib, ularning hazinasida necha ulug'lar turib, nega ularning esiga aynan shu zot tushdi? Beixtiyor onam takrorlab yuradigan bir naqlni eslayman: "Haq aziz qilgjan bandasi xor aylamas!" Navoiyni haq aziz qildi! Alloh qator bandalariga iste'dodo beradi va hu ne'mat ichida ularni imtihon qilib ham boradi. Imtihondan esa biri o'tib, mingi to'kilib qolavaradi. Azizlikka erishmoq uchun iste'dodning o'zi kifoya emas ekan, katta iste'dodni ko'tarib yurish uchun katta shaxsiyat kerak ekan. Iste'dod-ilohiy nur, shoir shaxsi esa shu muborak nurni qabul qilib oluvchi makondir. Nur birday tushaveradi, ammo gul yoki tikon unishi makonga bog'liqdir. Makon shikasta bo'lsa, makon qusurli bo'lsa, iste'dod ulg'aymas. Ulg'aysa-da, Alloh uni el nazariga tushirmas! Boisi, shaxs iste'dodini g'uborli, fe'li bilan nopok qildi. Ya'ni unda hasad yoki kibr bor, yoki u xasisi, dilozor yolg'onchi, yoki noshukur va besabr. Bunday holatda iste'dod o'z egasidan albatta xun so'raydi. Ki shoir g'oyat jarangdor so'zlar aytaveradi, ammo Tangri to'sgan devorga tegib qaytaveradi, qaytaveradi, oraga ming dallol tushsa ham, elga yetmaydi, yetolmaydi!

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Toza shaxsiyat, ya'ni til, dil, fe'l pokligi bilan Ilohiy nur, ya'ni iste'dod qovushgan joyda BUYUKLIK bunyod bo'ladi. Bu – ilohiy in'om. Bu – komillik bilan ilohiy nurning payvastaligi. Mana shu sazovorlikning nomi Haqqa yetishmoqdir! Alisher Navoiy shu ne'matga erishgan zotdir.

Buyuklik nur manbaiga o'xshaydi: Navoiyning nomini zikr etganingizdayoq sizga harorat kelgan kabio bo'lur! Buyuklik – zamon va makonga daxlsiz, quyosh nuri kabi beminnat! "Men quyoshni sevmayman" deganlarga ham nur sochaveradi, ehtiyojmand hujayralarni o'zi topib tiriltiraveradi...

"Ba'zi bir so'zda sehr, ba'zi bir she'rda hikmat bordir" degan Hadisi sharifdan kelib chiqib, hazrati Navoiyning bir necha baytlari bilan dardlashishni ko'nglim tusadi, nainki, bu zotning yozmishlari sehr va hikmat bilan limmo-lim to'lgandir.

#### **Birinchi suhbat**

##### **Ixlos**

"Ixlos – xalos!" deydi xalq. Xalqning tilida o'may kelayaptimi demak, bu so'zning toshi og'ir. Bir kuniga yaraydiki, xalq bu zil yukni ko'tarib yuradi. Azizim, siz ham egilingda, poyingizda sochilib yotgan xalqning so'zlariga mehr bilan quloq

tuting, mag'zini tuying va amaliyotingizda qo'llab ko'ring – muammolaringiz kamayib boraveradi!

Navoiyda shunday misralar bor:  
Ranj ko'rmay kishi toparmu farog',  
Ko'ngli o'rtanmayin yonarmu charog',  
Tuxum yerga chechak bo'ldi,  
Qurt jondin kechib ipak bo'ldi,  
Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmi,  
Pilla qurticha himmating yo'qmi?

Joning qiynalmaguncha farog'at yo'qdir, demoqda shoir. Joningni qiynovda ushlab turgan esa bu o'sha ixlosdir! Hamma hunarmand, hamma iste'dodli va hamma layoqotli kishida ixlos bor deb bo'lmas ekan. Xalqona aytganda, o'ziga berilgan ne'matlardan baraka topganlar ixlosmand kishilardir. Bunday insonlar qo'l urganki narsalari va yumushlariga katta muhabbat bilan qaraydilar, atrofda ne bo'lsa, barini mukofot deb biladilar, ozgina qiynalsam, shu narsa yanada chiroyli bo'ishi mumkin deya, qiymalanib yashaydilar. Yashasin ular!

Gul bo'lsayu ifori bo'lmasa, bekor! Asal bo'lsayu taxir bo'lsa, bekor! Non bo'lsayu kuyuk bo'lsa, til bo'lsayu dilni erita bilmasa, bekor! Shakl bilan mazmunni monand etish uchun esa IXLOS kerak. Ixlos aralashgan joydagina afzallik muqimlashadi. Chiroqning yonayotgan yuragi – ko'ngli uning piligidir. Yuragingga o't tushsa, ya'ni olovdek gurullab bir ishga kirishsanggina murodingga yetasan. Mana, chirog'ning ixlosi jonini o'rtadi, ammo atrofni nurafshon qildi. Bu nurafshonlik ichra avval o'zining go'zal turishini qarang, parvona unga jismini qurbon qilayotir, insonlar uning tevaragiga intilayotir, oshiqalar suyganlarini “chirog'im“ deb unga mengzayotirlar! Asl farog'at – shu!

Ixlos – bu astoydillik, diqqatni, sabrni, kuchni bir nuqtaga to'plash, shaytonni nari itarish, ko'tarinkilik, mehnatingning natijasiga ishonishdir. Ixlos bilan ish boshlayotgan odam, yaratganga tavakkal qilib turgan kishidir. Yaratganning unga bergan jismoniy va ma'naviy imkonlariga suyanib turgan kishidir. Bundaylarga mukofotim ko'pdir, deyiladi Qur'oni karimda. Dunyoning yeti mo'jizasi sanalgan eng buyuk ixtirolar ham, Registon, Ulug'bek observatoriyasi, Oqsaroy... vatanimizning ayrim joylarida uchraydigan, bir necha asr muqaddam bino bo'lgan, hali – hanuz zilol suvlarini saqlab kelayotgan quduqlargacha IXLOS bilan qilingan mehnat hosilasidir. O'lmay kelayotgan kitob, kuy, suvrat, hunarmandlik buyumlarining uzun umriga sabab bo'layotgan faqat IXLOSdir!

## **XULOSA**

Demak, ixlos – avvalo insonga muhabbat, mehnatga muhabbat va Alloh senga in’om etgan o’zlingga muhabbatdir! Va uning qaytimi g’oyatda roxatlidir – eshityapsizmi, “tuxum yerga kirib chechak bo’ldi, qurt jondin kechib ipak bo’ldi!” Yaxshi ona bo’laman deb, navqironligingiz o’tib ketsa, ma’qul farzand bo’laman deb, biringiz ikki bo’lmagan bo’lsa, chekingizga tushgan tirikchilik yumushini ixlos-la, ya’ni mukammal va halollik bilan ado etaman deb, karvondan ortda qolayotgan bo’lsangiz, also xomush tortmangiz. Ertaga hammaning bolasi rayxon bo’lsa, sizning bolalaringiz anvoyi gular bo’lgay! Ota-onangizning rizoligi tufayli bolalaringiz sizni boshlariga qo’ygaylar! Ishingizdagi halolligingiz farzandlaringizni jinoyatdan, balo-qazolardan asragay! Bersin, bersin rohatni, qarsillab turganingda emas, iligingdan quvvat ketganda bersin!

Lola tuxumicha g’ayrating yo’qmi,  
Pilla qurticha himmating yo’qmi?

Yuragingning o’rtasiga tegadi bu xitob! Lola tuxumiki qora tuproqqa yukunib, gulga aylanyaptimi, inson bundan katta oriyat tuymog’i, tolei sari g’ayrat bilan intilmog’i shart, deydi shoir. Qurtki ipakka do’nib tursa, ya’ni astoydil mehnati bilan o’lmaslikka saylanib tursa, ey Hazrati inson, tezkor himmatlaringni atrofga sochishga tush va seni kutayotgan ulkan mukofotlarga yetish yo’lini qisqartir, deya dilingizni uyg’otadi shoir.

## **REFERENCES**

1. Talqin etilgan hadis BILKIZ ALADDINning “Muhammad payg’ambar alayhis-s-salom qissasi” kitobidan olindi. T:”Kamalak”. 1991. Ingliz tilidan Jamol Kamol tarjimasi.
2. Alisher Navoiy. Topmadim. G’azallar. T., G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1988.
3. Alisher Navoiy. Qaro ko’zim. G’azallar. T., G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1988.